

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "BOSHLANG'ICH TA'LIM MENEJMENTI"
FANINI O'QITISHNING ZARURIYATI VA NAZARIY ASOSLARI****Xudayberdiyeva Dilafruz Abidovna****Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti dotsenti****Matrasulova Mohinur Ulug'bek qizi****Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15342818>**

Bugungi ta'lim islohotlari negizida umumta'lim jarayonining boshlang'ich ta'lim bosqichiga zamonaviy yondashuvlar jamiyat talablariga mos holda yangilanmoqda. Ta'lim jarayoni kontekstida "Boshlang'ich ta'lim menejment" - bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruvning usullari, tamoyillari, texnologik yondashuv va tashkiliy shakllari majmuasi sifatida pedagogik kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonining rejalashtirilishi, takomillashtirilishi va nazorat qilinishiga doir bilimlarni o'zida aks ettirgan mustaqil fan sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Boshlang'ich ta'limni boshqarishning muhim me'yoriy asoslaridan biri bu - hukumat tomonidan taqdim etilib kelinadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlardir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269 sonli Qarori¹ bilan tasdiqlangan "Ma'muriy islohotlar dasturi" mamlakatimizda ta'lim tizimini, jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichini yuksak texnologik yondashuvlar asosida boshqarish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'limni boshqarishda "menejment" tushunchasiga tayanish muhim ahamiyatga ega². "Menejment" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, tashkil etish, boshqarish, sharoit yaratish, imkoniyatlarni kengaytirish ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida ushbu atama ko'pincha "boshqaruv" so'zi bilan sinonim sifatida ishlatiladi. "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fani — boshlang'ich sinf ta'lim tizimini samarali tashkil etish, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash tizimini o'rgatadi. Bu fan orqali bo'lajak pedagoglar:

Bu fan orqali
bo'lajak
pedagoglar:

-boshlang'ich ta'limning tashkiliy asoslari;

-ta'lim-tarbiyaning boshqaruv mexanizmlari;

-zamonaviy menejment texnologiyalari;

-ta'lim muassasasining ichki faoliyatini tashkil etish uslublari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'i sifatida ta'kidlash o'rinliki, So'nggi besh yil davomida xalq ta'limi tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, "Ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 21.12.2022 yildagi PF-269-son. <https://www.lex.uz/docs/-6324756>

² Хасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: "Фан ва технология". 2009 308 - бет.

to'g'risida" Qonunning yangi tahriri qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Maktab ta'limini rivojlantirish sohasida bevosita **17 ta** hujjat, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **4 ta** hujjati qabul qilindi.

Biroq ta'lim sohasida mavjud yutuqlarga qaramasdan xalq ta'limida bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida deyarli muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda maktablardagi ta'lim muammolari haqida xabarlar yoki materiallarni uchratish mumkin. Ular orasida vaqtinchalik tusga ega (masofaviy ta'limga o'tish, qonunchilikdagi o'zgarishlar) hamda tizimli (jamiyatda o'qituvchilarga munosabat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar) muammolar mavjud. Jumladan, <https://www.uzedu.uz/uz/tankidlarga-munosabat-2021> havolasi orqali O'zbekiston Respublikasi maktab ta'limi tizimidagi tanqidlar va ularga tegishli mutasaddi tashkilotlarning javoblari bilan tanishish mumkin. Vazirlik tomonidan quyilgan bunday qadam juda muhim, ammo amalga oshirilayotgan muloqat ta'lim sifatining pasayishiga olib keladigan sabab va sharoitlarni yo'q qilishga qaratilgan bo'lishi bundan ham muhimdir.

Ta'limdagi muammolar davlatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan 2023 yilning 28 yanvar kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda Davlatimiz rahbari darajasida maktab ta'limi sohasidagi muammolar va dolzarb masalalar qayd etildi, qator takliflar ilgari surildi. Albatta, bunday g'amxo'rlik maktab ta'limining ustuvorligidan dalolat beradi. Biroq, maktab ta'limi muammolari tizimli va mustaqil tarzda hal qilinishi kerak. Muammolar chetdan turib hal qilinadi, deb uylash xatodir, shuning uchun xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatida ishtirok etadigan barcha davlat organlaridan tashabbuskorlik talab etiladi.

Umumta'lim jarayonida mavjud muammolar ko'p hollarda quyidagi sabablarga ko'ra kuzatiladi:



1-rasm. Umumta'lim jarayonida mavjud muammolar ³.

³ Shaxsiy izlanishlariga muvofiq muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1.O'qituvchilar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar. Hech kimga sir emaski, yaqin vaqtgacha o'qituvchilar faoliyatida darslarni yuqori sifatda o'tkazishga va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga to'sqinlik qiladigan bir qator ob'ektiv muammolar mavjud bo'lgan. Turli hisobotlarni tayyorlash bilan bog'liq byurokratik to'siqlar oxir-oqibat o'qituvchilarni ta'limga aloqasi bo'lmagan turli ikkinchi darajali vazifalarni bajaruvchi oddiy ijrochilarga aylantirdi. Rahbariyat tomonidan maktab ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli bu muammolarni bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyat va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlardagi keyingi muammo – bu ota-onalarning o'qituvchilarga nisbatan munosabati. Bugun ota-onalar barcha qiyinchiliklarda o'qituvchilarning o'zlarini ayblashga, noto'g'ri bo'lsa ham bolalarini himoya qilishga ko'proq moyilligi kuzatilmoqda. Misol uchun, o'tgan yilning fevral oyida ijtimoiy tarmoqlarda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi maktablarning birida uy vazifasini bajarmaganligi bois tanbeh bergani sabab o'qituvchini ustozidan gap eshitgan o'quvchining buvisi turli haqoratli so'zlar bilan behurmat qilib, uning yuziga tarsaki tortgani haqida xabarlar tarqaldi. Bunday holatlar o'qituvchilarga ishonchsizlik muhitini yuzaga keltirib, o'quvchilarning haddan tashqari “erkalanib ketishiga” sabab bo'ladi. Ba'zan ijtimoiy tarmoqlarda o'quvchilarning nojo'ya harakatlarida o'qituvchilarni ayblash ham kuzatilmoqda. Masalan, o'tgan yilning fevral oyida [Angren](#) shahridagi 41-maktabda o'quvchining do'pposlanishi bilan bog'liq voqea tasvirlangan video tarqatilgan edi. Mutasaddilar tomonidan voqea sinchiklab o'rganilganidan so'ng, o'qituvchining dars berishiga o'quvchining aynan o'zi to'sqinlik qilganligi va uni har tomonlama masxara qilganligi ma'lum bo'lgan.

2.Maktab o'qituvchisi kasbining obro'si unchalik yuqori emasligi. Afsuski, maktab o'qituvchisi talab yuqori bo'lgan kasblardan biri emas. Birinchidan, bu o'qituvchilarning ish haqi bilan bog'liq. Shuning uchun, ba'zida boshqa yuqori maoshli ish topa olmagan bitiruvchilar o'qituvchi bo'lishga qaror qiladilar.

Xorijiy mamlakatlarda o'qituvchilar uchun munosib maosh to'lashga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, Shveysariyada o'qituvchilarning maoshi oyiga **6240** dollargacha, Germaniyada – **5500** yevrogacha, Yaponiyada – **3900** dollargacha, AQShda – **3900** dollargachini tashkil etadi.

Ish haqining pastligi o'qituvchilarni yangi daromad manbalarini izlashga undaydi. Ba'zida o'qituvchilar qo'shimcha ish qidirishlari kerak. Ayrim o'qituvchilar dars soatlari sonini ko'paytirishga harakat qilishadi, bu o'qitish sifatini pasaytiradi va bir vaqtning o'zida boshqa o'qituvchilarni ish vaqtidan mahrum qilishi mumkin. Kimdir 1,5 stavkada va boshqasi esa yarim stavkada ishlayotgan vaziyat vujudga kelishi mumkin.

3.O'qituvchilik kasbining jozibadorligini oshirish choralarini ko'rish zarur. Bunda o'qituvchilarga turli imtiyozlar berilishi maqsadga muvofiq. Bu amaliyot bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarda o'zini oqlamoqda. Masalan, **Germaniyada** maktab o'qituvchisi kasbi eng yuqori haq to'lanadigan kasblardan biridir, shu bilan birga ular uchun soliqlar kamaytirilgan bo'lib, arzon xususiy tibbiy sug'urta taqdim etiladi. **Kanadada** maktab o'qituvchilari uchun yuqori ish haqi bilan birga, turli ijtimoiy paketlar va sug'urta taqdim etiladi. **Janubiy Koreyada** ish haqini bosqichma-bosqich oshirish (har uch yil ish staji uchun ish haqiga 8 % ustama qo'shiladi), uy-joy sotib olish yoki ijaraga berishda imtiyozlar ajratish tizimi mavjud. **Finlyandiyada** davlat tomonidan o'qituvchilarning ish haqi munosib bo'lishi hamda

imtiyozlar berilishi va subsidiya berish orqali xarajatlarning bir qismining qoplanishi ta'minlanadi.

4.Maktablarning moddiy-texnik ta'minot bilan bog'liq muammolar. Zamonaviy maktab talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar uchun qulay platforma sanaladi. Bu qulaylik maktabning zamonaviy texnologiyalar (smart-doskalar, kompyuter jihozlari) bilan ta'minlanishini talab qiladi. Bularsiz maktab ta'limi zamonaviy voqelikdan orqada qoladi, bu esa ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, lozim darajadagi moddiy-texnik ta'minot ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Moddiy-texnik muammolar maktablarni raqamlashtirish jarayonini yanada sekinlashtiradi. Hech shubhasiz, zarur shart-sharoitlarni yaratmasdan, o'qituvchilardan ijobiy natijalarni talab qilish adolatdan emas.

5.Maktabdagi o'quv dasturlari muammolari. Ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga javob bermaydigan eskirgan o'quv dasturlari asosida tashkil etish yana bir muammolardan biri sanaladi. O'quv adabiyotlaridagi matn tushunish uchun "murakkabligi" va o'qitishning asosan nazariy jihatdan yo'naltirilganligi o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon bermaydi, o'qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklaydi. Ba'zi hollarda, tizimlilik yetishmaydi va shuning uchun boshlang'ich sinflarda olingan bilimlar yuqori sinflarda to'ldirilmaydi.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, "Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning dolzarbligi yuqori deb baholash mumkin. U bo'lajak pedagog-kadrlarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama shakllantirishga xizmat qiluvchi boshqaruv vositalarini o'rganishga qaratilgan. Boshlang'ich ta'limda menejment asoslarini o'rgatish orqali o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirish, ta'lim jarayonini tizimli boshqarish ko'nikmalarini berish, sinfda va maktabda samarali pedagogik muhit yaratishga yordam berish va o'z-o'zini boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish kabi rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bundan tashqari, pedagogik faoliyatda boshqaruvning nazariy asoslarini bilish, zamonaviy ta'limda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularga yechim topishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik menejmentning ayrim xususiyatlari pedagogik jarayonning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda, ta'lim jarayonlarini boshqarish, o'qitishning tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi funksiyalari, shuningdek, vositalari, shakllari, usullari va pedagogik jarayonning maqsadlari bilan belgilanadi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda rahbarlikning o'ziga xos yondashuvlari orqali o'quvchilar bilan ishlashda aniq maqsadlar qo'yish, jarayonni tahlil qilish va natijalarni nazorat qilish imkoniyati tug'iladi.

"Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanining mazmuni va o'qitish metodikasi – bu fan doirasidagi quyida keltirilgan yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich ta'lim tizimida boshqaruvning mazmuni va funksiyalari;
- maktab menejmentining huquqiy asoslari;
- sinf rahbariva jamoa boshqaruvi;
- ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish;
- innovatsion menejment elementlari.


"Boshlang'ich ta'lim menejmenti" fanini o'qitishda interfaol metodlar, treninglar, amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zero, ta'lim muassasalarini boshqarish - bu ijtimoiy boshqaruvning bir turi bo'lib, o'z mohiyati jihatidan gumanitar xarakterga ega. Chunki barcha boshqaruv subyektlarining asosiy faoliyat mazmuni - bu insonlarni boshqarishdir. Boshqaruvning barcha boshqa funksiyalari mustaqil ahamiyatga ega emas, balki ta'lim muassasasi jamoasini tashkil etuvchi insonlarni boshqarish vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishda ikki ko'rinishga ajratiladi:

1. Ta'lim jarayonini boshqarish – bu o'quv mashg'ulotlarini va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonining asosiy boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.
2. Ta'lim muassasasi jamoasini boshqarish – pedagogik va o'quvchilar jamoasini boshqarish. Bu o'rinda ta'lim jarayoni va ta'lim muassasasi jamoasi boshqariluvchi tizimlar sifatida qaraladi.


Ta'lim muassasasini boshqarishda menejmentdagi tizimli yondashuvni qo'llash:



kabilar jarayonni yaxlitlikda ko'rish va baholash imkoniyatini yaratadi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim muassasasida boshqaruv madaniyatini ta'minlash orqali, ma'muriyat tomonidan boshqaruv jarayoniga oid axloq, estetika, huquq, boshqaruv texnologiyasi va tashkilotchilik prinsiplari asosidagi talablarni bajarish va aniq boshqaruv tuzilmasini ta'minlash, har kim o'z huquq va majburiyatlarini, hamda o'zaro bog'liqlik jarayonini bilishi lozimligini bildirishdir.

Ta'lim tizimi – bu madaniyatni tizimli uzatish instituti (ya'ni, uning mahsuli" – bu ma'lumotli shaxs). Ta'lim tizimi ochiq tizim hisoblanadi, ya'ni boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Ta'lim tizimiga xos jihatlari:



“Boshlang'ich ta'lim menejmenti” fanining o'qitilishi pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bu fan orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat dars o'tish, balki ta'lim jarayonini boshqarish, tahlil qilish va takomillashtirish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Shu sababli, uni o'qitish bugungi ta'lim tizimidagi islohotlar nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 y. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 2020-yil, 24-yanvar. <http://www.uzreport.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 21.12.2022 yildagi PF-269-son. <https://www.lex.uz/docs/-6324756>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 30 июндаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-86-сонли фармони.
6. Абдуллаев, А. Т. Инновацион педагогика: назария ва амалий ёндашувлар. Т.: “Фан” нашриёти, 2019.
7. Асадова, Н. Р., ва Юлдошев, М. А. Олий таълим тизимида сифатли таълимни ташкил этиш усуллари. Т.: “Ўқитувчи нашриёти”, 2021.
8. Badalboyeva M. “Qobusnoma” asarida yoshlar tarbiyasi. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>.
9. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. White Plains, NY: Pearson Education, 2007.
10. Ergashev, Sh. E.. Ta'limda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

11. Khudayberdiyeva D., Raupova D. Consistency of reforms in education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – С. 1671-1680.
12. Khudayberdiyeva D., Xamroyev J.A. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari //Germany" modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – T. 9. – №. 1.
13. Khudayberdiyeva D., Xamroyev J.A. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi //Russian" инновационные подходы в современной науке. – 2023. – T. 9. – №. 1.
14. Науменко, Е. В. Методика обучения в высших учебных заведениях. М.: "Юрайт", 2018.
15. Қурбонов, Ж. Т.. Олий таълимда инновацион технологияларни қўллаш. Т.: "Шарқ", 2022.
16. Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: "Фан ва технология". 2009 308 - бет.
17. Шипилина Л. А. Менеджмент в образовании. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлению 44.04.04 – Профессиональное обучение (по отраслям). Омск: Издательство "ОмГПУ", 2017.